

## SANJAR TURSUN IJODIDA MILLIY RUHNING O'ZIGA XOS TASVIRI

**Olim Usmonov**

*f.f.n, Suvanov Husniddin Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'AU 2-kurs magistranti*

### ARTICLE INFO.

**Key Words:**

Ruhning, Tasviri, Milliy.

### Abstract

Tayanch Soʻzlar: Ovol, Oqshom, Kapa, Chavondo, Tong, Taqa. Yozuvchi Sanjar Tursunovning birinchi kitob toʻplami boʻlgan “Muzaffar tong” kitobi yillar oʻtgan boʻlsada hali hamon kitobxonni diqqatini tortib, kitobni sevib oʻqishga majbur qiladi. Kitobda aks ettirilgan voqea va hodisalar insonning fikru-zikrini tortadi. Har bitta hikoyasida olam maʼno borligi sezilib turadi. Sanjar Tursunov asarlarida badiiy psixologik-ruhiy tasvirning oʻrni benihoya kattadir. Ayniqsa “Muzaffar tong” deb atalgan toʻplamda psixologik-ruhiy tasvir tushunchasi ostida milliy ruh, asar qahramonlarning ruhiy olamiga singib ketganiga guvoh boʻlasiz. Qahramonlarning ichki dunyosi, orzu-oʻylari, kechinmalari, kayfiyatlari hamda intilishlarini yuksak badiiylik asosida tasvirlanishi millitimiz psixologik ruhiyatiga asoslangan holda yorqin ifodasini topgan. Uning mohiyatini esa, qahramon ruhiyatiga xos xislatlarning, ruhiy olamining qay holda, qay vaziyatda oʻzbek milliy ruhining namoyon boʻlganligini koʻrasiz. Oʻzbekona milliy mentalitetga xos boʻlgan badiiy asar olamiga kirganligingizni his qilassiz. “Muzaffar tong” hikoyalari toʻplamida milliy ruh tasvir anchagina chuqur va koʻp qirralidir, yaʼni unda, nafaqat milliy ruhiy, psixologik tasvir, balki ruhiy tahlil hukmronlik qilish darajasiga yetadi. Ruhiy tahlil kuchli boʻlgan bu badiiy asarda xatti-harakat, epizod, har bir voqea u yoki bu qahramonning ichki-ruhiy olamini ochishga boʻysundirilgan va kitobxonga soddalik bilan etkazib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

“Muzaffar tong“ badiiy asarda tasvirlangan milliy ruh xarakteri oʻquvchida oʻzbekona qadryatlarni, milliy gʻururni dilida jo qilishi tabiiydir. Hikoyalardagi sujetlar bilan tanishishi bilan oʻzbek millatga tegishli boʻlgan urf-odat, anʼanalarga yuzlanadi. Badiiy asarning oldida eng birinchi va asosiy vazifa-badiiy asarni tushunish masalasi tursa, bu hikoyalarda oʻquvchi asarni tushunishda aslo qiyinchilikka yuz kelmaydi. Oʻquvchi asarni oʻqish asnosida mentalitetimizga xos boʻlgan xarakterli ruhiy holatni kuzatadi. Bu xarakter badiiy asardagi qahramonlar ruhiyatiga kira olish, uning ruhiy olamini, qahramonlarning xarakterlari, ichki kechinmalari, oʻy-xayollari, ruhiy dunyosini anglashda joʻn keladi.

Hikoyalardagi epizodlar orqali koʻz oʻngida milliy tasvirlarni gavdalantirib, oʻzida milliy ruh va milliy

g'ururni paydo qiladi. Bu to'plam sakkizta hikoyadan tashkil topgan bo'lsada har bir hikoyasida o'zbek millatining milliy tabiati, milliy buyumlari, milliy o'yinlar, milliy taomlari kitobxonning e'tiborini tortadi. Vatanga bo'lgan muhabbatini yuragidan ich-ichidan his qilib, yashindek borliqni kitobxon nazarida nurga to'ldiradi. Milliylik singdirilgan hikoyalarda milliy urf-odat, an'anayu-qadryatlar bir o'qishda har kitobxonning qalb qo'riga yetib boradi va milliylikni aks etgan bu hikoyalarda umuminsoniy tasvirni ko'rib hayratda lol qolasan kishi. Vatan, millat so'zlarining bir-biriga bog'liq ekanini angladi. Ha bu zarhol so'zlarni o'qigan o'quvchi yoshning kechinmalar tovlanib Vatan hamda milliy tasviriy ruh emotsional motivatsiyasi ortib, yuragida chaqnayotgan shu aziz va mo'tabar so'zni ovozinig boricha baralla tarannum etgusi keladi. Yozuvchi voqeligimizda milliy til, milliy ifoda uslubi, milliy qahramon, milliy ruh va milliy tabiatni jonlantirib tasvirlash mahorati kitobxonning diqqat markazini tortadi. Muallifning "Ovulda bir oqshom", "Chavandoz ko'ngli", "Muzaffar tong", "Ismat bobo", "Omon podachi", "Taqa", "Seni yaxshi ko'raman", "O'pich" kabi hikoyalar shu to'plamdan o'rin olgan, lekin milliy tasvirning ifodalanish uslubi turli xil ko'rinishlarda namayon etganiga guvoh bo'lamiz." Ovulda bir oqshom" hikoyasini o'qir ekansiz asarda ishlatilgan so'zlar o'z-o'zida e'tiboringizni tortadi, so'zlarning ma'nosi xayolingizni o'g'irlab muallif so'zlayotgan muhitning ichki olamiga yetaklaydi. "Oq ovulning Ozodasi" jumlasini qancha voqealarni qahramon hayotida bo'lib o'tgan voqealar olamiga sayohatga olib kiradi. Muallif tog', ovul, xurjun, o'tin, kapa, oyna, bolta, qora kuya, qurt, qatiq, sut va eshak so'zlari orqali ajdodlarimiz yashab o'tgan atroflicha muhitni ko'z oldimizga keltiramiz. Jonlangan tasvirlar o'quvchi kitobxonning salohiyatini yuksaltirib boradi. Shu o'rinda asarda keltirilgan voqea: "Ozoda yugurib tosh ustuga chiqdi-da, o'rtog'imizga qarab qo'li bilan tez hayda ishorasini qildi. O'rtog'miz piyoda, hamon eshagini o'z holicha haydab kelardi. U kelguncha kutib turdik-da, keyin hammamiz kapaga kirdik. Kapa ichida katta uydek kelar, dasturxon yozilgan edi. Bizga bir kosadan issiq sut olib kelishdi, keyin katta karsonda qaymoq keltirildi. Rosa rosa maza qildik o'ziyam. Xurjunimizdagi qirmizi olma, olcha bodringlarni berdik.<sup>1</sup> Hikoyada bu milliy tasvirni o'qigan o'quvchi yoshning xayolida to'g'ridan- to'g'ri o'sha atrofli muhit namayon bo'ladi. Mazmun mohiyatga, mehr-muhabbanashryotitga to'la bo'lgan yana bir hikoyalardan milliylikni o'zida ko'zgudagidek yorqin aks etgan "Chavandoz ko'ngli" da chavandoz obrazi orqali o'zbekning mard, tanti va mukammal shaxsini tushunishimiz aniq. Norqo'zining muhabbati barcha voqea hodisalarni o'z atrofiga jamlab ota-onalarning farzandini o'ylash, havotir va g'amxo'rlikda o'z ifodasini topgan. Asardagi bir holga e'tibor beramiz. "Chavandoz ko'pni ko'rgan. Bir qarashda yo ikki og'iz gapidan kimning qanaqa inson ekanini biladi". Ha, chavandoz nomi tag zamirida o'zbekning haq, odil, mard, baquvvat, alp, samimiy, vijdonli, imonli va soddadil shaxsni tushunishimiz, bir so'z bilan aytganda komil inson sifatlarini ko'ramiz. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan gap bor. Shunday ekan chavandozning yakkayu yolg'iz farzandi Norqo'zi ham chavandozlikning barcha sirlarini o'rganib, chavandoz bo'ladi. Lekin, Norqo'zining aqlu-xayolini o'g'irlagan Zulfiyaning tengdoshlari farzand yetaklab yursada turmushga chiqish xayolining bir chetidan ham o'tmasdi. Zulfiya ota uyida ro'zg'or ishini eplolmagan, uyqudan to'yagan ota-otajon uyida erkalik gashtini surgan, o'ziga bino qo'ygan iboligina o'zbek qizi, qaynota uyiga keliganida o'sha erkatoylklarni ota hovlisiga tashlaydi. Albatta bu xususiyat har bir o'zbek qizining qon-qoniga singan go'zal fazilat. "Muzaffar tong" hikoyasida To'ra polvon obazi orqali o'zbekning bekligi, yigit kishi hunar o'rganish shart va kerak ekanin muallif ko'rsata olgan. Paxsa urish, kurash tushish va otga mehr berish kabi erkakka xos jihatlarni ko'ramiz. Kurashga borib otini bog'lab tomosha qilar ekan, davrada Otqamar qishlog'idan yoshgina Abdi polvonning ko'krak kerib turganini ko'radi, o'zga yosh bola bilan kurashishni ma'qul ko'rmay turganida bakovul takror chaqirganiga chiqdi. Abdi polvonni To'ra polvon yiqitadi. Shu kundan Otqamar qishlog'ining o'n yetti yosh yigitchasi Tora polvonga shogird bo'lib tushdi. Ustoz shogird har kun tongni birga qarshi oladigan bo'ldi, kurash siri-asrorini o'rgatar edi.

Yana bir asari "Ismat bobo" bu asarda yosh Ismatning boshiga tushgan tashvish harqanday odamga og'irlik qiladi. Otasi urushga ketib qaytmadi, onasi bevaqt jigari shishib o'lgani, ukasi Do'stmat kunjara

<sup>1</sup>Sansar Tursunov "Muzaffar tong" Toshkent "Akademik" nashri, 2015. '.

yeb o'lishi, singlisini o'zi bilan ishga olib yurardi. Qayerga borsa o'sha joyga olib borardi, lekin singlisi ham yorug' olamga sig'madi. Kutilmaganda o'lishi Ismat uchun og'ir kulfat edi. Tirishqoq va irodali Ismat yengadi. G'iybatchilar gap so'zlariga chidayolmay uyini, hovlisini, qishlog'ini, mahallasini tashlab ketadi. Endi unga nima kerak, hech narsa kerakmas. Qurbon bobo hovlisidan qo'nim topadi, u yerda to'rt fasl ham mehnat qilar edi. Namoz o'qiyotganda Qurbon bobo ham o'lib qoladi. Ismat bunday bo'lishini bilganda bu hovliga qadam qo'ymasdi. O'sha kuniyoq to'rt yilda bir xabar olmagan farzandlari: "- Ismatga otamni sen o'ldirding"- deb turib olishadi, qishloqdan haydaldi. Va, nihoyat "Ot aylanib qozig'ini topadi "-deganidek Ismat ham o'z qishlog'iga, o'z uyi o'lan to'shagiga qirq yoshida qaytadi. Odamlar yaxshi kutib oladi. Ismat ham "Xalqimning xizmatida bo'lganim bo'lsin "-deydi.

Shu kundan boshlab xalqi kulsa, kuldi. Xalqi yig'lasa yig'ladi. Shu xalq farzandini farzandim deb bildi va turmush qurmadi. Ismat qaridi, Ismat bobo bo'ladi. Afsus... Afsus! "Ismat bobo" bobo bo'lganini his ham qilmaydi. Chunki, bobo bo'lsada yigirma yoshlik yigitdek chopib-chopib, yugurib-yugurib xalqning to'yi-yu, marakasida jon kuydirib, sirtqi dildan iloji yetganicha xizmat qiladi. Xalqini hurmat-u izzat qildi. Ammo, u bugun katta ko'chada o'ldi. Hech kim Ismat boboga yordam berolmadi. Bugun qishloq Ismat boboga o'rgangan yetti yoshidan, yetmish yoshigacha yig'i-sig'i qiladi. Birov otam -desa, birov bobom, birov akam -desa, birov ukam derdi. Ismat boboning o'lganiga ishongusi kelmaganlar ko'p edi. Faqat va faqat yorim, begim deydigan jufti haloli bo'lmadi. Bu asar qisqa bo'lsada kuchli ma'noviy xususiyatga ega asar ekanidan kitobxon qalbini zabt etib kelmoqda. O'zbekona ruh, o'zbekona mehr, o'zbekona qadryat asarning tag-zamiriga singib ketgan. Ismat bobo taqdiri shu zayilda yakun topadi. Samimiylik, soddalik, kamtarlik yog'rilgan ijodkorning qiziqdan-qiziq bo'lgan "Omon podachi" yoshi ellik to'rtida bo'lsada hamon o'zini olti-yetti yoshar boladek tutish soddalikdan boshqa narsa emasligi ma'lum. Shu ahvolga tushgan Omonga kim sababchi hech kim sababchi emas. Sababi shuki, soddaligi, oddiyligi, beg'uborlik xarakteri milliy tasvirni o'zida namoyon qilgan.

"Taqa" hikoyasida otga xayolimiz beixtiyor ketadi. O'zbek yigitining ori, g'ururi, faxri bo'lgan ot haqida gap ketadi. Yigitni yigit qildigan ot, otni ot qiladigan taqa, taqani taqa qiladigan taqachi. Taqachilik ham murakkab va mashaqatli hunar. Bularning barchasi boshida milliy ruhga yog'rilgan o'zbek yigiti tasvirlanishi tabiiy hol. Munaqqid tasvirlagan har bir voqea hodisada milliy tasvir aks-sado beradi. Shu aks-sado o'zbek g'ururi, Vatan madhi singar ichki kechinmalarni kitobxon qalbi shuuriga yerga suv singanidek imon-e'tiqodiga, ruhi-jismiga singadi. "Taqa" deb, nomlangan hikoyasida tog'liklarning ajablanarli odati haqida hikoya qilingan. "Bu yerda yashaydigan tog'liklarning g'alati odati bor: otlarni o'lguday yaxshi ko'rishadi. Mehmon kelsa, otiga qarab mulozamat ko'rsatadi. Ayniqsa taqasini sinchkovlik bilan kuzatib, qayerda, qachon qaysi usta yasagan-u qaysi taqachi taqalaganigacha taxmin qilishardi". Taqa-otning tuyog'i ostiga qoqilib otning tuyog'i har qanday narsadan himoya qiladigan buyumdur. Ha har bir o'zbek xonadonida ot boqishga bo'lgan ishtiyoq bor. Yozuvchi bu hikoyada xalqimizning otga bo'lgan qiziqishini oydin ravshan tasvirlab bergan. Quyidagi jumlagi e'tibor beramiz "Agar katta ziyofatda bo'lsa-yu nogahon ko'chadan ot tuyog'i ovozi eshitilsa, yeb turgan nasibasida tashlab yugurishlari. Bir zumda otni o'rab olishadi. Yo'lovchi xabar deb kelgan esada demoqchi bo'lganini unitib kelgan yo'liga ravona bo'lardi".<sup>2</sup> Bu insonlar ot ko'rmagan emas, aksincha ko'rib, otga bo'lgan mehridan shunchalik sinchkovlik otning va taqaning farqini anglashadi. Ot va taqachiga umumiy bahoning berilishi albatta, ota-bobolarimizning otga va taqaga bo'lgan qiziqishidan dalolat beradi. Yozuvch "Taqa" hikoyasida ham ajdodlarimizning milliy jihati, milliy qarashlari, milliy ruhiyatini ifoda etishda mohirona badiiy uslubdan oqilona foydalangan desak yanglishmagan bo'lamiz.

"Seni yaxshi ko'raman" asarida oshiq yigit xat ichida yozgan gaplarning ma'nosi o'qib sevgi maktubi emas balki, odob-axloq haqida ilmiy asar o'qigandek bo'lasan kishi. Ashurmat akaning qishloq ahlini tozalikka chaqirishi, toza-ozodalik har birimizning qon-qonimizga ota-bobolarimizdan qolgan urf-udumligi bizga ma'lum. Bu asarda yozuvchi ota farzand uchun naqadar aziz ekanligi, otasi bor

<sup>2</sup> Sansar Tursunov "Muzaffar tong" Toshkent "Akademik" nashri, 2015.

insonning doim ko'ngli to'q bo'lishi va Anzirat kampirning ikki o'g'li urushga ketib, samolyoti bilan portlashi, Anzirat kampirning telba bo'lishi onaning farzand uchun bo'lgan mehr rishtasi ko'rsatilgan. Bundan tashqari telba Anzirat "Mustaqillikka qachon erishar ekanmiz" -deydi. Bundan ko'rinib turibdiki asaridagi maktubda xalqning orzu-umidlari o'z aksini topganligini ma'lum. Yana milliy rihiy tasvirga ega "O'pich" hikoyasida muallif tog'li joy tasvirini kengko'lamda tasavvurimizga keltirib, Oynayijonda ko'rgandek bo'lasan kishi. Buloq yon-atrofida bo'lgan voqealarning har bir qishloq yigiti yoshligida ro'y beradigan hodisa desak adashmagan bo'lamiz. Buloq suvi naqadar shirin chanqoqlarni bosguvchi, shu bilan birga mehr-oqibat timsoli sifatida qaralsa ham bo'ladi. Qahramon qalbini hamon-hamon "Ilk muhabbati" jumbushga keltirmoqda. Buloq suvi yerdan qiynab chiqib tugamagani kabi qizlarning go'zali Go'zalxon bo'lgan muhabbati buloq suvidek tugamasligi keltirilgan. Har bir shaxs yurak-yuragida Vatanga, ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do'stu-qadrdoniga va birinchi muhabbatga bo'lgan mehri, mehr bulog'idan qaynab chiqadi. Shunday qilib "Muzaffar tong" hikoyalar to'plami ham keng mazmun-mohiyatga egaligi bilan badiiy adabiyotlarimiz qatoridan joy oldi. "Muzaffar tong" to'plamida yozuvchi badiiy asar orqali- qahramon tafakkurini, unda inson va jamiyat hayoti, uning taqdir yo'li va qismati o'z tasvirini topgan. Har bir hikoyasida hayotimizda sodir bo'lib o'tgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan voqea-xodisalar muallif tomonidan o'quvchi-kitobxoniga badiiylik qonuniyatlariga asoslanib yetkazib berdi. Mazkur badiiylik qonuniyatlari turli hikoyalarda sayqallanib, milliy jo'n shakllantirgan. Badiiy asarlarda ko'tarilayotgan muammolar, o'quvchi e'tiboriga havola qilinayotgan badiiy asar mavzusi va mazmuni bevosita o'zbek milliy ruhini yorqin namoyon qilib, tasvirlagan. Asardagi badiiy obraz xarakterini chuqur va to'liq ochib berishda muallif badiiy tasvir vositalari bilan qatorda milliy-psixologik tasvir vositalaridan ham foydalandi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish, obraz ruhiy ichki dunyosini mohirlik bilan ochib bergan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sanjar Tursunov "Muzaffar tong" Toshkent "Akademnashr" 02.02.2015-yil
2. Sanjar Tursunov "Oq ovulning ozodasi" G'afur G'ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent -2016
3. Sanjar Tursunov "Sombulaning so'ngi oqshomi" G'afur G'ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2019